



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TAKROR TURLARI VA TARJIMA MASALALARI

Gulchehra Shavkatjon qizi Yo'ldosheva
Talaba
O'zbekiston Milliy Universiteti
Toshkent, O'zbekistan

Annotatsiya: Jahon tilshunosligida turli tizimli tillarda yozilgan matnlarni stilistika, tarjimashunoslik va leksikografiya bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarining ko'lami kengaymoqda shuningdek, qiyoslash va chog'ishtirib o'rganishga e'tibor tobora ortib bormoqda. Bunga sabab tillar orasidagi kommunikativlikning kundan kunga takomillashayotganligidir.

Kalit so'zlar: alliteratsiya, polisindeton, hiazm, epanalepsis

Tarjima va tarjimonlik uzoq asrlardan buyon dunyo xalqlari tarixi va madaniyatida shakllanib kelayotgan ko'hna ijodiy faoliyat sohalaridan biridir. Yer yuzining turli qit'alari va mintaqalaridan bir necha ming yildan buyon umurguzaronlik qilib kelayotgan odamzod nasllari o'z ijodkorlik havaslari, qiziqishlari, imkoniyatlari, manfaatlarini tarjima vositasida ham namoyon etadi.

Alliteratsiya tushunchasi haqida Sh.Asqarova ilmiy tadqiqoti jarayonida shunday ta'rif beradi: "misralar, undagi so'zlar boshida bir xil undosh tovushlarning takror qo'llanishi yoki bir xil harf yoki harf birikmalari takroriga alliteratsiya deyiladi"¹ hamda D.Sobirova ham o'zining ilmiy tadqiqot ishida o'z tushunchalarini berib o'tgan: "alliteratsiya ahamiyat berilishi lozim bo'lgan so'zlarga kishi diqqatini tortadi, uni o'ziga xos shaklda talaffuz qilishga undaydi. Badiiy nutqning ohangdorligini va ta'sirchaligini ta'minlashda ana shunday tovushlar takrorining o'rni beqiyosdir"² deb ta'rif bergan.

Yuqorida zikr qiligan qarashlarga qo'shilgan holda misollarda ko'rib chiqishni lozim toptik:

Alliteratsiya undosh tovushlarning takrorlanishi bo'lib quyidagi misolda ko'rib chiqamiz.

Ingliz tilida:

The major spoke to an orderly who went out of sight in the back and came back with a metal basin of cold cooked macaroni. I handed it to Gordini.

(Ernest Hemingway "A farewell to arms" p68)

O'zbek tili:

¹ Asqarova Sh. Ingliz va o'zbek tillarida takrorning linivistik xususiyatlari Filol. fan. nom....diss. avtoref.- Toshkent, 2022. 34-35b.

² Sobirova D. Ingliz va o'zbek tillarida qo'shma gaplar orqali ifodalanuvchi stilistik vositalarning chog'ishtirma tadqiqi(takror, antiteza va hiazm materiali asosida). Filol.fan.nom...diss.avtoref.- Toshkent, 2023. 21b.

ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСИЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Bosh shifokor sanitarga nimadir deb aytdi, u uying ichkari tomoniga kirib ketdi- da, u yerdan sovib qolgan makaron ovqat solingan metall idish ko'tarib chiqdi. Men uni Gordiniga berdim.

(Ibrohim G'ofurov "Alvido qurol" b 59)

Bu misolimizda c tovushning takrorlanishi yani aliteratsiya hodisasi takrorlanayotgani kuzatishimiz mumkin. Tarjima jarayonida o'zbek tilida bu tovush yo'qolganligi ohangdorlik yuzaga chiqmaganligini kuzatishimiz mumkin. Tarjimon tarjima qilar ekan o'zining asliyatini yoqotmagan holatda hamda millatning madaniyati chuqur o'rgangan holatda tarjima qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Polisindeton takrorning bir turi bo'lib, I.O'sarov¹ o'zining ilmiy tadqiqot ishida ko'rib chiqqan hamda bog'lovchili qo'shma gaplar tarkibida kelishini aytib o'tgan. Misol uchun ingliz tilida: and, but, because, if kabi bog'lovchilarining takrorlanib kelishi natijasida yuzaga keladi.

Ingliz tilida:

*Ah! not my people. Mrs. Fairlie is dead; **and** her husband is dead; **and** their little girl may be married **and** gone away by this time.*

(Wilke Collins Woman in white 22)

O'zbek tilida:

*"Yog'-e, bular menga notanish Ferali xonim **ham**, ularning eri **ham** olamdan o'tgan; jaji qizlar allaqachon turmushga chiqib, bu yerdan ketgan bo'lsa kerak"* (Tarjima Abduqqahor Iminov "Oq kiyingan ayol 26.b)

Hiazm so'zlarning kres bo'lib takrorlanishi.

O'zbek tilida:

*Nargizning so'roqlab uning hayolida **tongni tun, tunni tong qildi.***

(Sharof Rashidov "Kashmir qo'shiqlari" b 51)

Tarjimada:

Nargiz's interrogation turned morning into night and night into morning in his dream.

Takrorning hiazm turi o'zbek adabiyotida she'rlarda, asarlarda, maqollarda ko'rishimiz mumkin. Bu misolda ya'ni tongni tun-morning into night hamda tunni tong qildi-night into morning deb tarjima qilingan. Bu tarjima jarayonida ham takror turi o'zgarmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Epanalepsis yuqorida zikr qilganimizdek she'rlarda ham takrorning bu turini misolda ko'rishimiz mumkin.

O'zbek tilida:

*Botako'zlar **saf-safdir,***

***Saf-safu** betarafdir!*

Arg'ivon gullar esa,

Gulistonga sharafdir.

(Sharof Rashid "Kamshir qo'shig'i")

Ingliz tilida:

See the hosts of cornflowers

Thronging the river banks,

Where blue and red are neighbours,

Like two lines of a song

(translated by A.Miller, I.Melenevsky)

¹ O'sarov I. Qo'shma gaplar umumiy stilistikasining muammolari (asyndeton, polisindeton, antiteza va hiazm materiallari asosida):Filol.fan. nom....diss. avtoref.- Toshkent, 2004. 50b.

Bu sherimizni tahlil qilish jarayonida asliyatni o'zgarganligi va ma'no kuchini yo'qotganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda gapning eng muhim bo'lagiga urg'u berish, so'zlovchining hissiy holatini tasvirlash, uning ta'riflanayotgan ob'ektga nisbatan emotsional-ekspressiv munosabatini ko'rsatish hamda jarayon davomiyligini ifodalashda muhim stilistik ro'l o'ynaydi. Qator stilistik vositalar kabi takror ham ko'p vazifalidir. Har bir takror gapning ritmik aspektini kuchaytiradi, nutqni ohangdor, ta'sirchan va jozibador qiladi, shu yo'l bilan tinglovchi tomonidan osonlik bilan qabul qilinishida stilistik muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqqahor Iminov "Oq kiyingan ayol" Toshkent 2010.
2. Asqarova Sh. Ingliz va o'zbek tillarida takrorning linvistik xususiyatlari Filol. fan. nom....diss. avtoref.- Toshkent, 2022. 34-35b.
3. Ibrohim G'ofurov "Alvido qurol" Toshkent 2019.
4. Sobirova D. Ingliz va o'zbek tillarida qo'shma gaplar orqali ifodalanuvchi stilistik vositalarning chog'ishtirma tadqiqi(takror, antiteza va hiazm materiali asosida). Filol.fan.nom....diss.avtoref.-Toshkent, 2023. 21b.
5. O'sarov I. Qo'shma gaplar umumiy stilistikasining muammolari(asyndeton, polisindeton, antiteza va hiazm materiallari asosida): Filol. fan. nom....diss. avtoref.- Toshkent, 2004. 50b.
6. G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent, Tafakkur bo'stoni, 2012. –B.5
7. Sharof Rashidov "Kashmir qo'shiqlari" Toshkent 1979
8. Ernest Hemingway "A Farewell to Arms" 1986.
9. Miller, I.Melenevsky "Songs of Kashmir" Toshkent 1992
10. Wilke Collins "Women in white" Global Grey 1859
11. The Oxford English-English Dictionary, edited by Paul Falla, London, 2000.- 842 p
12. Najmiddinova, M. R., & Jalolova, S. M. (2021). CONTRASTIVE STUDY OF ENGLISH AND UZBEK PUNCTUATION RULES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(06), 1-5.
13. BALANCES, O. S. W. O. C. ROOTABLE LAYER IN EXPERIMENTAL PRODUCTION SECTIONS. *Ozatboy Bazarovich Imamnazarov, Tokhirjon Olimjonovich Qosimov, Makhhammadali Rustamjonovich Abdullaev ISSN, 2349-0721.*
14. IMAMNAZAROV, O. B., QOSIMOV, T. O., & ABDULLAEV, M. R. (2020). Balances Of Soil Waters Of Cotton Rootable Layer In Experimental Production Sections. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 7(05), 318-321.
15. Jalolova, S. M., Otakulov, N. B., Urmonova, N. M., & Nazarova, D. O. (2022). MODERN METHODS AND TECHNOLOGIES IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(4).
16. Odilov, B., & Karimov, N. (2022). COVERAGE OF ECONOMIC AND CULTURAL TRADITIONS IN THE YEARS OF INDEPENDENCE IN ETHNOLOGICAL RESEARCH (ON THE EXAMPLE OF THE FERGANA VALLEY). *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(3).
17. Имамназаров, О. Б. (1993). Регулирование мелиоративного режима при близком залегании слабоминерализованных грунтовых вод.
18. АГЗАМОВА, Д. Б. (2018). COGNITIVE ANALYSIS OF METAPHORIC PHRASES OF THE CONCEPT " MEMORY" IN THE ENGLISH AND UZBEK BELLES-LETTRES TEXTS. *Иностранные языки в Узбекистане*, (2), 94-100.
19. Odilov, B., & Karimov, N. Archaeological Research is an Important Source in the Study of Traditional Economic Activities of the Uzbek People (On the Example of Some Researchers of the Twentieth Century).
20. Makhhammadovna, M. F., & Agzamova, D. B. (2021). Psycholinguistic studies of pre-wedding and wedding traditions (on the basis of English and Uzbek phraseological units). *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).
21. Shodmonov, A. (2022). Coverage of titles in Central Asian Hellenistic Sources. *Eurasian Journal of History, Geography and Economics*, 11, 24-26.